




Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Viloyatda o'rtacha oylik ish haqi yanvar-mart oylarida 2849,9 ming so'mni tashkil etib, viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida 4923,5 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 172,7 %), Guliston shahrida 3303,3 ming so'mni (115,9 %), Yangiyer shaharida 3201,1 ming so'mni (112,3 %) tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan Guliston tumanida 2198,4 ming so'mni (77,1 %), Mirzaobod tumanida 2234,3 ming so'mni (78,3 %), Oqoltin tumanida 2391,4 ming so'mni (83,9 %), Sardoba tumanida 2338,3 ming so'mni (82,0%), tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda

Hududlar bo'yicha viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (% da)





(viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)

Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm)

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	2021 - yil Yanvar-mart	2022 - yil Yanvar-mart	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha jami:	2409,8	2849,9	118,3
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	2838	3303	116,4
Shirin	3328	4923	147,9
Yangiyer	2500	3201	128,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	2009	2391	119,0
Boyovut	2178	2244	103,0
Guliston	1852	2198	118,7
Sayxunobod	2475	2839	114,7
Mirzaobod	1816	2234	123,0
Sardoba	2044	2338	114,4
Sirdaryo	2091	2372	113,4
Xovos	2427	2631	108,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili.

(2022- yilning yanvar – mart oylarida)

Sanoatda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 112,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 24,3 % ga oshdi.



➤ **Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1403,0 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 58,1 % ga pasaydi.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 784,9 ming so'mni tashkil qildi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 13,2 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 696,9 ming so'mni tashkil qildi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 36,2 % ga oshdi.

- **Axborot va aloqa** sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 577,3 ming so‘mni tashkil qildi va 2021 - yilning shu davri bilan taqqoslaganda 19,6 % ga oshdi.



- **Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 6 433,6 ming so‘mni tashkil qildi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 24,3 % ga oshdi.

- **Ta'lim sohasida** o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 498,5 ming so‘mni tashkil qildi va 2021 - yilning mos davri bilan taqqoslaganda 8,8 % ga oshdi.




- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 415,0 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2021 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 14,0 % ga oshdi.

➤ **Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 263,0 ming so‘mga to‘g‘ri keldi va 2021 - yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda 18,3 % ga oshdi.




➤ **2022 - yil yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 849,9 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etgan.**

➤ **O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 114,1 % ga o‘sgan.**



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2022 - yil yanvar-mart oylarida, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.08.2021- yildagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-6279-sonli Farmoniga muvofiq, 2021- yilning 1- sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 822 000 so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

